

INGILIZ TILI DARSLARIDA O'YIN METODI

Toshpulatova Benazir

Andijon viloyati Baliqchi tumani 38-maktab Ingiliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada jahon tili deb e'tirof etilayotgan ingiliz tilini fan doirasida o'qitish maqsadida ishlataladigan o'yin metodlari yoritib berildi.

Kalit so'zlar: Object, Taboo words, Last Man Standing,

Kirish: “Til bilding – El bilding”. Bugunning katta talablaridan biri jahon tillarini bilishdir. Til bilish kelajakda chet el bilan hamkorlik, turistik masalalar, bilim doirasini yanada kengaytirish kabilarda asqotadi. Shularni inobatga olib ta’lim tizimiga ko’plab o’zgartirishlar kiritildi. Endlikda boshlang’ich ta’limdan boshlan rus v ingiliz tili darslari o’tilmoqda.

Asosiy qism: Agarda darslarda an'anaviy usullardan kechilsa, qiziqrli qilib olib borilsa bu nafaqat dars sifatini ta’minlaydi, shu bilan birga zerikishni oldini olib, passiv o’quvchilarni ham darsda ishtirok etishga jalb qiladi. Ingliz va rus tilini o’rgatish jarayonida bir qator qiziqrli o'yinlar mavjud. Shuni aytib o'tish joizki, bolalarga til o’rgatishda shunday o'yinlardan oydalanish kerakki, unda barcha o’quvchilar birdek ishtirok etishsin hamda darsadan yangilik olishsin (masalan yangi lug’atlar yodlab ketishi mumkin, har kuni shu jarayon takrorlansa, o’quvchining lug’at boyligi yuqori darajaga ko’tariladi). O’quvchilarga darsni grammematik tushunchalar bilan boshlash noo'rindir, ayniqsa kichik sinf o’quvchilarini tezda zerikishiga sabab bo’ladi. Natijada dasrga bo’lgan qiziqish so’nishi mumkin.

OBJECT- bu o'yin o'quvchilarning so'z boyligini oshirishga xizmat qiladi. Bizga ma'lumki, chet tili fanlarini o'rganishdagi eng muhim yo'naliш bu yangi so'zarni yod olishdir. O'quvchilarning xarakterlarini hisobga olsak, har bir o'quvchi o'z usulida lug’at yodlaydi. Shunga ishonchimiz komilki, o'yinlar orqali yangi so'zlarni yodlash hammaga mos keladi va bu jarayonni yengillashtiradi. Yuqorida aytib o'tgan

o'yinimizda, dars paytida sinf xonadagi 15 ta buyum stol ustiga qo'yiladi va o'quvchilar kelib bu buyumlarni ko'zdan kechirishadi. Buyumlarning usti yopib qo'yiladi va so'ngra o'quvchilar ko'rgan narsalarini, ma'lum vaqt davomida ingilizchasini doskaga yozishlari kerak. Eng ko'p so'zni to'g'ri yoza olgan o'quvchi g'olib bo'ladi. Shu o'yining sifatini ta'minlash maqsadida shuni ayta olamanki, shu vaziyatning o'zida qolgan, ishtirok etmagan o'quvchilarni ham darsga jalb qilish uchun, ularga shu buyum nomlariga bittadan gap tuzish toshirig'i berilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi va bu befarqlikning oldini ham oladi.[1]

Taboo words o'yini (Ta'qiqlangan so'zlar) - bu qiziqarli o'yin o'quvchilarga sinonim so'zlar va ularning tariflarini qo'llashda yordam beradi. Sinonimlardan foydalanish nutqning ravonligi, so'zlashuvning chiroyli bo'lishini ta'minlaydi. Ayniqsa ingliz tili fanida so'z qo'llash bilan bog'liq xatolikga yo'l qo'ymaslik kerak, chunki ingliz tilidagi ko'plab bir xil ma'noni anglatuvchi so'zlar, gap mazmuniga ko'ra foydalaniladi. Aynan ushbu o'yin shu jihatda ehtiyyotkor bo'lishga yordam beradi. Bunda guruhlar tashkil qilinadi, ya'ni o'quvchilar qarama-qarshi holda o'tiradilar. Har bir jamoa o'z jamoasidan bir kishini ro'parasidagi stulga o'tirishi uchun tanlaydi. O'qituvchi esa o'quvchilar ortiga o'tib katta qog'ozda yozilgan so'z ushlab turadi. O'rindiqda o'tirgan o'quvchilar bu so'zni ko'ra olmasligi kerak bo'ladi. Jamoaning o'rindiqda o'tirgan a'zosiga o'qituvchi ushlab turgan so'zni aytirish uchun biroz vaqt bo'ladi[1]

Last Man Standing (Oxirgi qolgan odam)

Bu o'yin tezkor o'yin hisoblanadi. Lekin O'quvchilarga o'ylash uchun biroz vaqt beradi. Bu o'yin birgalikda o'rganishga undaydi, ya'ni boshqa o'quvchilar so'zlayotganida qolgan o'quvchilar o'zlari so'z o'ylayotgan bo'lishadi. O'yinni o'ynash uchun sizga kopto'kcha kerak bo'ladi. Va hamma o'quvchilar doira shaklida turib olishlari kerak. Birorta mavzu tanlashingiz kerak bo'ladi. Masalan: Things found in a kitchen (oshxonada topiladigan buyumlar), food, profession va hokazo. Biror o'quvchiga to'pni uloqtirish orqali o'yin boshlanadi. O'sha o'quvchi mavzuga doir biror inglizcha so'z aytadi va to'pni keying o'quvchiga uloqtiradi. To'pni qabul qilgan

har bir o'quvchi shu mavzuga doir biror so'z aytishi kerak bo'ladi. Agar ular aytilgan so'zlarni qayta aytsa yoki bir necha soniya ichida so'z topa olmasa, ular o'yindan chiqadi va o'yinni o'tirgan holda kuzatadi. Havotir olmang, ular baribir o'rganayotgan bo'ladi. Bu o'yin biroz boshqacharoq qilib o'zgartirsangiz ham bo'ladi. Biror mavzuga so'z aytish o'rniغا, har bir o'quvchi keyingi o'quvchiga biror boshqa mavzu aytishi mumkin. Masalan, siz "say something red" (biror qizil narsani aytin) deb o'yinni boshlappingiz mumkin. Kopto'kni ushlab olgan birinchi o'quvchi "strawberry" deb keyin o'zi biror mavzu tanlab ko'ptokni boshqasiga uloqtirishi mumkin. Bu o'yinni biroz murakkablashtiradi, sababi o'quvchi biror so'z haqida o'ylashidan oldin, qaysi mavzuga doir so'z o'ylashi kerakligini ham bilishi lozim.[2]

Xulosa: Xulosa qilib aytganda ingiliz tili darslarida o'yin metodlaridan foydalanish xotirani mustahkamlaydi va darslarni o'zlashtirishni yengillashtiradi. Zerikarli an'anaviy darslardan ko'ra qiziqarli innovatsion usullar yaxshiroq natija beradi. Jamoaviy o'yinlar tashabbuskorlikni oshiradi va jamaoda ishlashni o'rgatadi, bu nafaqat ingiliz tili uchun balki o'quvchining dunyoqarashi uchun ham foydali.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/til-o-qitishda-o-yin-metodidan-foydalanish/viewer>
2. <https://hasanboy.uz/ingliz-tili-darslarida-qiziqarli-oyinlar/>